



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "QIZIL KITABI"GA (2006-2019)
KIRITILGAN CHINNIGULDOSHLAR(CARYOPHYLLACEAE)
OILASINING SOLISHTIRMA TAHLILI**

Abduxalilova Madinaxon Abdurayim qizi

AnDUPI, Aniq va tabiiy fanlar fakulteti,biologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Email: madinaxon14092004@mail.ru

Annotatsiya:

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitob"i 2006- 2019-yil nashrlarining 1-tomiga kiritilgan Chinniguldoshlar oilasining solishtirma tahlili amalga oshirilgan..

Kalit so'zlar: Qizil kitob, kamyoblik darajasi, maqomi, hayot shakli, o'sish holati.

Annotation:

In this article, a comparative analysis of the Chinniguldosh family, included in Volume 1 of the "Red Book" of the Republic of Uzbekistan, 2006-2019 editions, is carried out.

Key words: Red book, degree of rarity, status, form of life, state of growth.

Hozirgi kunda xalqaro kongress va simpoziumlar, botanik olimlarning ilmiy-amaliy anjuman va syezdlarining bosh mavzusi tabiatda o'simlik turlarining kamayishi va yo'qolib ketishining oldini olish uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar haqida bo'lmoqda. Botanikaning oldida turgan vazifalardan eng muhimi esa flora tarkibiga kirgan kamyob o'simliklarni barqarorligini ta'minlash va saqlash hisoblanadi.[4].

1948-yilda tashkil etilgan Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi kamyob va yo'qolib ketish xavfida bo'lgan o'simlik va hayvon turlarining ro'yxatini tuzish g'oyasini amalga oshirishga kirishdi. Turlarni saqlab qolish bo'yicha maxsus xalqaro komissiya tuzilib, 1966-yildan boshlab boshqa tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda xalqaro Qizil kitobning dunyo va alohida mintaqalar florasiga bag'ishlangan nashrlar chop etila boshlandi.[5].

O'zbekiston Respublikasi „Qizil Kitobi" ilk bor 1979-yilda ta'sis etilgan.1998-yilgi nashrga oid ma'lumotlarga ko'ra O'zbekiston Respublikasining "Qizil kitob"iga kiritilgan 301 o'simlik turi ta'riflangan bo'lsa, yangi nashrdan 313 tur 48 oilaga mansub o'simlik o'rin oldi.O'zbekiston Respublikasi „Qizil Kitobi"ning turli yillardagi nashrlariga o'simliklarning turlicha sondagi vakillari kiritilgan (1984-yil 163 tur, 1998-yil 301 tur,2006-yil 325 tur,2009-yil 326 tur,2016-yil 313 tur va 2019-yil 314





tur) (O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi", 1984, 1998, 2006, 2010, 2016, 2019). Ushbu turlarning taqdiri bilan respublika soxa mutaxassislari va olimlari hamda keng jamoatchilik muttasil shug'ullanib kelmoqda.[1,2,3].

"Qizil Kitob"ga kiritilgan o'simlik turlariga Tabiatni muhofaza qilish xalqaro uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan 4 ta maqom bo'yicha kamyoblik darajasiga tasnif berilgan.

1.Kamyoblikdarajasi 0. Yo'qolgan yoki yo'qolganligi ehtimoldan yiroq emas bo'lgan turlar.Yillar davomida tabiatda uchratilmagan, ammo madaniy sharoitda saqlanib qolish ehtimoligi bor turlar.

2.Kamyoblik darajasi 1.Yo'qolib ketish arafasida turgan turlar. Soni jihatdan va egallab turgan areali bo'yicha yo'qolib borayotgan turlar.

3. Kamyoblik darajasi 2.Kamyob turlar. Ma'lum bir kichik maydonlarda uchrab, o'ziga xos sharoitlarda saqlanib qolgan, yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan, qolaversa, jiddiy muhofazani talab etuvchi turlar.

4. Kamyoblik darajasi 3.Son jihatdan kamayib borayotgan turlar. Muayyan vaqt davomida tarqalgan maydoni va soni, tabiiy sabablarga kora yoki antropogen omil ta'sirida qisqarib borayotgan turlar.

"Qizil Kitob"ning 2006-yilgi nashriga 325 ta o'simlik turlari kiritilgan bo'lib shulardan 10 tasi(Kachimsimon yetmak, Tojikiston yetmangi, Mixelson zo'rchasi, Momiq zo'rcha, Popov zo'rchasi, Tog' zo'rchasi, Bigizsimon oqtikan, Ninasimon oqtikan, O'zbekiston chinniguli, Qisqa tojbargli chinnigul) Chinniguldoshlar oilsiga mansub turlar hisoblanadi. Chinniguldoshlar oilasi vakillarining yo'qolgan yoki yo'qolish arafasidagi turlari (**kamyoblik darajasi – 0**) mavjud emas, yo'qolib borayotgan turlari (**k.d. – 1**) soni 4ta, kamyob turlari (**k.d. – 2**)soni 5ta, kamayib borayotgan turlar (**k.d. – 3**) soni 1ta(1-jadval).[1].

Ushbu 10 ta tur o'simlikni hayotiy shakl jihatdan tahlil etganimizda, ularning 8 tasi ko'p yillik, 2tasi yarim buta hayotiy shakliga mansub ekanligi aniqlandi(1-jadval). Mazkur o'simliklarning 6 asi tabiiy holda o'sib, ularning madaniylashtirilganligi haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Faqatgina 4 ta tur o'simlik O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika bog'ida o'stirilayotganligi haqida ma'lumotlar mavjud(1-jadval).[1].



1-jadval

Jami turlar soni	Maqomi				Hayot shakli		O'sish holati		O'sish joyi			
	0	1	2	3	Yarim buta	Ko'p yilliko' t	Tabiiy	Madaniylashtirilgan	Tog'	Adir	Yaylov	Cho' l
10	0	4	5	1	2	8	6	4	10	0	0	0

“Qizil Kitob”ning 2019-yilgi nashriga 314 ta o'simlik turlari kiritilgan bo'lib shulardan 10 tasi(Kachimsimon yetmak, Mixelson zo'rchasi, Momiq zo'rcha, Popov zo'rchasi, Tog' zo'rchasi, Bigizsimon oqtikan, Ninasimon oqtikan, O'zbekiston chinniguli,Berchali zo'rcha, Natalya zo'rchasi) Chinniguldoshlar oilisiga mansub turlar hisoblanadi. Chinniguldoshlar oilasi vakillarining yo'qolgan yoki yo'qolish arafasidagi turlari (**kamyoblik darajasi – 0**) mavjud emas, yo'qolib borayotgan turlari (**k.d. – 1**) soni 3ta, kamyob turlari (**k.d. – 2**)soni 3ta, kamayib borayotgan turlar (**k.d. – 3**) soni 4ta(2-jadval).[3].

Ushbu 10 tur o'simlikni hayotiy shakl jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, ularning 7 tasi ko'p yillik, 3tasi yarim buta hayotiy shakliga mansub ekanligi aniqlandi(2-jadval). Mazkur o'simliklarning 6 tasi tabiiy holda o'sib, ularning madaniylashtirilganligi haqida ma'lumotlar keltirilmagan. Faqatgina 4ta tur o'simlik O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika bog'ida o'stirilayotganligi haqida ma'lumotlar mavjud(2-jadval).[3].

2-jadval:

Jami turlar soni	Maqomi				Hayot shakli		O'sish holati		O'sish joyi			
	0	1	2	3	Yarim buta	Ko'p yilliko' t	Tabiiy	Madaniylashtirilgan	Tog'	Adir	Yaylov	Cho' l
10	0	3	3	4	3	7	6	4	9	1	0	0



"Qizil kitob"ning 2006-2019-yildagi nashrlaridagi Chinniguldoshlar oilasi vakillarini o'rganishimiz davomida 2006- yilgi nashrga kiritilgan turlar (Kachimsimon yetmak, Tojikiston yetmagi, Mixelson zo'rchasi, Momiq zo'rcha, Popov zo'rchasi, Tog' zo'rchasi, Bigizsimon oqtikan, Ninasimon oqtikan, O'zbekiston chinniguli, Qisqa tojbargli chinnigul)dan tabiatdagi turlarini kuzatib borish, o'simlik mevalagan paytda chorva mollari boqishni cheklash, o'rmon xo'jaligi hodimlari xalq orasida tushuntirish ishlarini olib borishi kabi choralar ko'rilganligi bois, Tojikiston yetmagi va qisqatojbargli chinnigul 2019-yilgi nashrga kiritilmaganligi ma'lum bo'ldi. Qolgan turlarning ham ana shunday to'la muhofaza qilinishlari uchun ushbu turlar tarqalgan hududda chorva mollarining ko'plab boqilishini cheklash, mazkur turlarning ko'pchiligi gullagan vaqtda gullarini guldastalar uchun bavaqt yulib olmaslik, sanoat xomashyosi shuningdek dorivor maqsadlarda keragidan ortiq miqdorda yig'ib olmaslik kabi choralar ko'rilishi lozim!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2006.
2. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild. – Toshkent: Chinor ENK, 2016.
3. O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobi" 1-jild. - Toshkent: Chinor ENK, 2019.
4. Pratorov O'., Madumarov.T.A., Naraliyeva.N.M., O'zbekistonning noyob o'simliklari TOSHKENT. "O'qituvchi" 2011.
5. <http://geografiya.uz/ekologiya/80-tabiat-va-insonning-ozaro-tasiri.html>

